

O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MUTOLAANING AHAMIYATI

*Abdumatalipova Muxlisa Akmaljon qizi
ADPI 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativlikning ahamiyati, o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish, mutolaa madaniyati, uning o'quvchilar ma'naviy boyligini oshirishda tutgan o'rni hamda o'quvchilar orasida kitobxonlikni targ'ib qilishga doir ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, mutolaa madaniyati, ma'naviyat, kitobxonlik, o'quvchi, ta'lim, tarbiya, dunyoqarash.

THE IMPORTANCE OF READING IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES

Abstract: This article provides information on the importance of creativity, teaching students to think creatively, the culture of reading, its role in increasing the spiritual wealth of students, and promoting reading among students.

Key words: creativity, reading culture, spirituality, reading, student, education, upbringing, worldview.

Hozirgi zamonda ijodkorlik, noodatiylik, hammadan ajralib turuvchi jihatga ega bo'lishga talab ortmoqda. Insonlar bir xillikdan, hamma kabi bo'lishdan qochishga harakat qilyapti. Bu esa odamlarni doimo o'z ustida ishlashga, qobiliyatlarini yanada rivojlantirishga undamoqda. Har kuni ijodkorlikni rivojlantirish uchun ko'plab usullar ishlab chiqilib sinab ko'rilmoxda. Ular ichidagi eng samarali va necha yillardan buyon o'z ahamiyatini yo'qotmayotgani bu kitob mutolaa qilishdir.

Kitob o'qish har zamonda o'zining qadr-qimmatiga ega bo'lgan va hozirgi kunda ham uning ahamiyati sira kamaygani yo'q, aksincha, ancha oshdi. Xalqimiz azal-azaldan kitobni ulug'lagan, u insonning eng yaqin do'sti, hamrohi ekanligini ta'kidlab kelgan va farzandlarini keng dunyoqarashli, uzoqni ko'ra biladigan, zehnli qilib tarbiyalashda kitoblardan foydalangan. Bolalarni kichikligidanoq kitobga mehr-muhabbatli qilib ulg'aytirgan.

To'g'ri, XXI asr texnika, texnologiya asri. Balki shuning uchundir yoshlarimiz zamon bilan hamnafas bo'lishni xohlab, kompyuter, telefon va shunga o'xshash vositalardan foydalanishni afzal ko'rayotgandir. Lekin bu qurilmalarning qulayligi va foydasi ularning inson miyasiga yetkizadigan zararidan ustun emas. Ular inson miyasini tez toliqtiradi, ko'p ham bosh qotirishga undamaydi va natijada tayyoriga

o'rgatib, odamlarni dangasa qilib qo'yadi. Kitoblar esa aksincha, kitobxonni tasavvur qilishga, mulohaza qilishga undaydi, charchatmaydi va ma'naviyatini boyitib, estetik zavq olishga yordam beradi.

Hamma ham bir nechta kitob o'qib ijodkor, faylasuf, olim, aqlli inson bo'lib ketavermaydi. Mutolaa bu asta-sekin, lekin davomiy va tartibli olib borilishi lozim bo'lган jarayon hisoblanadi. Bola kichikligidan boshlab kitob o'qishni boshlasa, yoki ota-onasi o'qib bergenini eshitsa, unda dastlab turli xil tushunchalar paydo bo'ladi, o'zi uchun ko'plab ajoyib dunyolarni kashf etadi. Borliqdagi jamiiyki narsalar haqida umumiy fikr, bilimga ega bo'la boshlaydi. Bilim fikrlashni rivojlanishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Inson qancha ko'p bilim va tajribaga ega bo'lsa, shuncha fikrlashga qodir bo'ladi. Keyinchalik esa, o'sha fikrlarga o'zining munosabatini bildirishga o'tadi. Ba'zi bir narsalarni boshqasi bilan taqqoslaydi, o'xshash jihatlarini topadi. Undan keyin esa o'zining mustaqil fikrini bildirib, xato narsalarga tanqidiy yondashadi. Har bir sohada o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgandan so'ng esa, muammolarga yechim topish jarayonida eng samarali, maqsadga tezroq eltadigan yo'llar qidishga kirishadi. Shu zaylda u o'z-o'zini rivojlantiradi, yangilikka intiladi va muammolarga original yechim topish orqali hayotda o'z o'rmini egallaydi.

Kitobga muhabbat uyg'otishda bevosita ota-onalarning roli katta. Albert Enshteyndan bolalarimizni qanday qilib aqlli roq qilishimiz mumkin deb so'rashganda u shunday javob bergan ekan; "Farzandlaringiz aqli bo'lishini istasangiz, ularga kitob o'qib bering. Ular yanada aqli bo'lishini istasangiz yanada ko'proq kitob o'qib bering". Biz yosh avlodning aqlan yetuk bo'lib voyaga yetishi uchun kerakli sharoit va muhitni yaratib berishimiz lozim.

Shubhasiz, shu kungacha rivojlangan barcha sohalar, ilm-fanning asosi kitobga borib taqaladi, chunki buyuk ajdodlarimiz yoshligidan kitob o'qigan va bilimlarini shu bilan egallab, o'z zamonasining yetuk insonlaridan biri bo'lib yetishgan. Ular kashf qilgan yangiliklar, yozgan kitoblaridan necha asrlar o'tsa hamki biz ham foydalanim kelmoqdamiz. Kitob o'qish orqali ular shu darajaga yetib kelganlar, kitob ular uchun qorong'u yo'lni yorituvchi mash'ala misol edi.

Darhaqiqat, insoniyatni bilimsizlik botqog'idan qutqara oladigan va yanada nurafshon kunlarga yetishga yordam bera oladigan yagona vosita bu kitobdir. Shu boisdan yurtimizda Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan yoshlar va barcha yoshdag'i aholi o'rtasida kitob o'qishni targ'ib qilish, ommalashtirishga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi xalqimizni yanada ongli, ziyoli qilish va yurt ravnaqi uchun xizmat qiladigan yosh avodni tarbiyalash uchundir.

Kitoblarning hayotimizdag'i o'rni juda beqiyos. Sababi, hozirgi yuksak taraqqiyotga erishishimizda birlamchi omil bu kitobdir. Kitobni qadrLAYdigan xalq hech qachon xor bo'lmaydi. Kitobga shunchaki bir buyum kabi qaramaslik lozim.

Kitoblar his qilinadi. Ongimiz va qalbimizning hamisha kitobga ehtiyoji bor. U ruhimizni tarbiyalaydi, insonni shaxs sifatida shakllantiradi. Kitob bepisandlik bilan o'qilmaydi, u his qilinadi, tushuniladi. Shundagina fikrlashimiz, tafakkurimiz o'sishiga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kitob ustozlar ustozi. Hayotingiz davomida turli tuman kitoblar o'qiysiz, o'zingizda bir nechta insonlarning dunyoqarashi, tajribasidan o'rnak olasiz va hayot yo'lingizda ulardan foydalanasisz. Kitob o'qiganingiz sari dunyoga boshqacha ko'z bilan qaray boshlaysiz, olamning avval siz ko'rmagan tomonlarini ko'rasiz. Mutolaada davom etganingiz sari komillik sari ildamlaysiz, ammo kitob o'qishdan to'xtagan kuningiz yangicha fikrlashdan ham to'xtaysiz. Fikrlashdan to'xtash siz uchun ham, jamiyat uchun ham yaxshi bo'lmaydi. Jamiyat xurfikr, ijodkor insonlarga hamisha ehtiyoj sezadi. Kitobga oshno, kreativ fikrlaydigan, dunyoga o'zgacha ko'z bilan boqadigan insonlarni voyaga yetkazish uchun ota-onalar va pedagoglar birdek mas'ul. Bu murakkab jarayon. Uni samarali tashkil etish pedagog va ota-onalardan jarayonga maqsadli va tizimli yondashishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. – Toshkent: O'zgibkomtsentr, 2003
2. Qayumxo'jayeva Y. O'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti, 2007
3. Qurbanov D. Muhimi – kitobxonlik darajasi va madaniyati//<https://ziyo.uz>.